



THE IMPORTANCE OF IDENTIFYING AND MONITORING RISK INDICATORS IN RISK-BASED INTERNAL AUDIT

Shakina Asfandiyorova

“TIAME” NRU, PhD student

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17066668>

ARTICLE INFO

Received: 01st September 2025

Accepted: 04th September 2025

Online: 05th September 2025

KEYWORDS

Monitoring system, risk criteria,
information transparency,
management decisions, risk
identification.

ABSTRACT

This article analyzes the importance of identifying and monitoring risk indicators in organizing a risk-based internal audit. During the study, international standards of internal audit (IIA, COSO ERM model) and approaches described in modern scientific sources were studied. Correctly identifying risk indicators in enterprises and their regular monitoring are of great importance in increasing audit efficiency, strengthening financial discipline, and substantiating management decisions. In particular, the article covers the procedure for identifying risk indicators and dividing them into criteria in a risk-based internal audit. The importance of monitoring the identified risks through a monitoring system is reflected.

RISKKA ASOSLANGAN ICHKI AUDIT O'TKAZISHDA XAVF KO'RSATKICHLARINI ANIQLASH VA MONITORING QILISHNING AHAMIYATI

Shakina Asfandiyorova

“TIQXMMI” MTU, tayanch doktoranti

sh_asfandiyorova@tiame.uz

orcid.org/0009-0003-5165-117X

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17066668>

ARTICLE INFO

Received: 01st September 2025

Accepted: 04th September 2025

Online: 05th September 2025

KEYWORDS

Monitoring tizimi, xavf
me'zonlari, axborot shaffofligi,
boshqaruv qarorlari, risklarni
aniqlash.

ABSTRACT

Ushbu maqolada riskka asoslangan ichki auditni tashkil etishda xavf ko'rsatkichlarini aniqlash va monitoring qilishning ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqot davomida ichki auditning xalqaro standartlari (IIA, COSO ERM modeli) hamda zamonaviy ilmiy manbalarda bayon etilgan yondashuvlar o'rganildi. Korxonalarda risk indikatorlarini to'g'ri aniqlash va ularni muntazam monitoring qilish audit samaradorligini oshirish,



moliyaviy intizomni mustahkamlash va boshqaruv qarorlarini asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jumladan, riskka asoslangan ichki auditda xavf ko'rsatkichlarini aniqlash, mezonlarga bo'lish tartibi maqolada yoritilgan. Aniqlangan xavflarni monitoring tizimi orqali kuzatish ahamiyati aks ettirilgan.

KIRISH

Bugungi iqtisodiyot o'zgarishi hamda raqobat muhiti sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan ularning risklarni to'g'ri baholashi va nazorat qila olish qobiliyatiga bog'liqdir. Xususan, ichki audit tizimini riskka asoslangan yondashuv asosida tashkil etish xo'jalik yurituvchi subyektga nafaqat moliyaviy va tashkiliy xatoliklarning oldini olish, balki strategik qarorlar qabul qilishda ishonchli ma'lumot bazasini yaratish imkonini beradi. Demak, ichki auditning bunday tizimini amaliyotga tatbiq etish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

Riskka asoslangan ichki auditda xavf ko'rsatkichlarini aniqlash va ularni muntazam monitoring qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki risk omillarini erta bosqichda aniqlash, ularni tahlil qilish va nazorat mexanizmlarini ishlab chiqish orqali korxonalar resurslaridan oqilona foydalanish, ichki boshqaruvni kuchaytirish va tashqi bozordagi beqarorliklarga moslashish osonlashadi. Oldindan aniqlangan risk ko'rsatkichlarini to'g'ri bartaraf etilsa, korxonalar faoliyati barqarorlashadi.

Shu jihatdan, korxonalarda risk ko'rsatkichlarini baholash va monitoring qilish amaliyoti audit jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga, rahbariyat uchun qaror qabul qilish jarayonida ishonchli axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Axborotlar qanchalik aniq va shaffof bo'lsa, korxonada qaror qabul qilish jarayoni optimallashtiriladi. Demak riskka asoslangan ichki audit tatbig'i nafaqat ichki auditni yaxshilash, balki boshqaruv mexanizmini yaxshilashga ham xizmat qiladi.

Risklarni aniqlash orqali risk darajasi aniq baholanadi, xavfli zonalarga bo'linadi va ichki audit yo'nalishlari belgilab olinadi. Ayniqsa, moliyaviy tahlillar, ichki nazorat tizimlari va BI (business intelligence) texnologiyalari bu borada asosiy vositalar sifatida xizmat qiladi. Risklarni saralash ichki audit rejalashtirishining boshlang'ich nuqtasidir. Amaliyotda, risklarni saralash tizimlashtirilgan mezonlar asosida amalga oshiriladi va bu mezonlar ichki auditning xalqaro amaliyoti bilan hamohang bo'lishi lozim. Xususan, The Institute of Internal auditors (IIA) tomonidan ishlab chiqilgan Professional Practices Framework asosida, risklarni saralashda risklarning strategik ahamiyati, moliyaviy ta'siri, sodir bo'lish ehtimoli, aniqlangan oldingi xatoliklar va ichki nazorat darajasi kabi mezonlar asosiy ko'rsatkichlar sifatida e'tiborga olinadi. Korxonalarda amaliy jihatdan bu jarayon quyidagicha tashkil etiladi: birinchidan, korxonalar faoliyatining barcha yo'nalishlari bo'yicha mavjud yoki potensial xavf omillari aniqlanadi. Bu bosqichda bo'lim rahbarlari, funksional mutaxassislar va ichki audit xodimlari ishtirokida intervyu va savolnomalar o'tkaziladi. Ikkinchidan, aniqlangan xavflar ustuvorlik darajasi bo'yicha baholanadi, bunda har bir xavf yuz berish ehtimoli (kam, o'rta, yuqori) va uning oqibatlari



(kichik, sezilarli, halokatli) asosida ball berish tizimi orqali reytinglanadi. Uchinchi bosqichda esa baholangan xavflar ustuvorlik darajasi asosida saralanadi va har bir xavfga nisbatan ichki audit strategiyasi belgilanadi: ya'ni, chuqur tekshiruv, sirtqi monitoring yoki ichki auditdan chiqarish. Risklarni saralashning metodik asoslari ichki auditning samarali rejalashtirilishini, resurslarning to'g'ri taqsimlanishini, va ichki auditning muhim sohalarga yo'naltirilishini ta'minlaydi. Bu jarayonda mezonlarning aniqligi va amaliy ahamiyati ichki audit sifatini oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu boisdan, zamonaviy ichki audit amaliyotida ushbu saralash usuli doimiy takomillashtirib borilmoqda. Xavf ko'rsatkichlarini aniqlashda ishlatiladigan vositalar quyidagilardir:

- (1) moliyaviy hisobotlar tahlili;
- (2) nisbiy moliyaviy koeffitsientlar ;
- (3) trend tahlili;
- (4) o'zgaruvchanlik indeksleri;
- (5) BI va ERP tizimlari orqali real vaqtli monitoring.

Ushbu vositalar ichki auditorlarga kompaniya faoliyatining eng zaif va noaniq jihatlarni aniqlashda muhim imkoniyat yaratadi.

Korxonalarda monitoring tizimi ichki auditorlarga xavfli faoliyat turlarini doimiy kuzatib borish, resurslarni qayta taqsimlash va tavsiyalar ishlab chiqishda aniq asoslar beradi. Ichki audit jarayonini "onlayn" monitoring bilan uyg'unlashtirish - bu ichki audit faoliyatining samaradorligini oshiruvchi va xavflarni real vaqt rejimida kuzatish imkonini beruvchi strategik yondashuvdir. Bu model zamonaviy texnologiyalar – ERP (enterprises resource planning), BI, moliyaviy tahlil modullari, masofaviy kuzatuv paneli (dashboard) va sun'iy intellekt vositalari bilan integratsiyani nazarda tutadi. Ushbu tizimlar korxonaning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari, operatsion jarayonlari, xarajatlar dinamikasi, aylanma mablag'lar holati va rentabellik darajasi bo'yicha doimiy axborotlar oqimini taqdim etadi, ichki auditor esa bu axborotlarni real vaqt rejimida baholaydi. Demak, "onlayn" monitoringni ichki audit jarayoniga integratsiya qilish xavflarni faqat aniqlash emas, balki ularni real vaqtda boshqarish, ustuvorliklarni belgilash, boshqaruvga tezkor axborot uzatish va strategik qarorlar qabul qilishni ta'minlaydi. Bu esa, o'z navbatida, korxonaning barqarorligi va operatsion xavfsizligini oshiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Riskka asoslangan ichki audit va xavf ko'rsatkichlarini monitoring qilish masalalari jahon va mahalliy ilmiy adabiyotlarda keng o'rganilgan. Xalqaro miqyosda IIA (Institute of Internal Auditors) tomonidan ishlab chiqilgan "International Standards for the Professional Practice of Internal Auditing" hujjatlarida riskka asoslangan yondashuv ichki auditning asosiy tamoyili sifatida e'tirof etilgan. Mazkur standartlarda auditorlik faoliyatida xavflarni aniqlash, baholash va ularni nazorat qilish jarayonlari korxonada boshqaruv tizimining barqarorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida ko'rsatiladi.

Cosso (Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission) tomonidan ishlab chiqilgan ERM (Enterprise Risk Management) modeli esa risklarni tizimli boshqarish, risk ko'rsatkichlarini aniqlash va ularni monitoring qilish bo'yicha nazariy asos hamda amaliy yo'riqnoma vazifasini bajaradi. Mazkur model audit jarayonida xavflarning korxonada strategiyasiga ta'sirini baholashda keng qo'llaniladi.



Tadqiqotda quyidagi usullar qo'llanildi:

Nazariy tahlil – riskka asoslangan ichki audit, xavf ko'rsatkichlari va monitoring jarayonlariga oid xalqaro va milliy ilmiy adabiyotlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar o'rganildi.

Qiyosiy tahlil – rivojlangan mamlakatlar va O'zbekiston korxonalarida ichki audit amaliyoti o'rtasidagi farqlar aniqlanib, ilg'or tajribalarni tatbiq etish imkoniyatlari ko'rsatildi.

NATIJALAR

Riskka asoslangan ichki auditda baholash mezonlari sifatida odatda quyidagilar olinadi:

*moliyaviy og'ishlar (foyda yoki zarar dinamikasi);

*ichki nazorat zaifliklari (ichki audit oldi so'rovnomalari asosida);

*shikoyat va da'volar soni, faoliyatdagi muhim o'zgarishlar (struktura, rahbariyat, texnologiyalar);

*axborot texnologiyalariga bog'liqlik darajasi va ilgari aniqlangan kamchiliklar soni.

Bu mezonlarning har biri 1 dan 5 gacha ball bilan baholanadi va yakuniy reyting ko'rsatkichi hosil qilinadi. O'rtacha ball qancha yuqori bo'lsa, ichki audit ob'ekti shuncha xavfli deb hisoblanadi.

Quyida ichki audit ob'ektlarini tanlashda foydalaniladigan baholash modelining namunaviy jadvali keltirilgan:

1-jadval.

Ichki audit ob'ektlarini tanlashda xavf mezonlari asosidagi baholash modeli (lizing korxonasi misolida)

No	Ichki audit ob'ekti nomi	Foyda/zarar og'ishi (1-5)	Ichki nazorat zaifligi (1-5)	Shikoyat soni (1-5)	IT bog'liqlik (1-5)	Ilgari aniqlangan kamchiliklar (1-5)	Umumiy ball	Xavf darajasi
1	Lizing portfeli boshqaruvi	5	4	3	4	5	21	Yuqori
2	Kadrlar bo'limi	2	3	2	2	1	10	Past
3	Xaridlar va ta'minot bo'limi	4	5	4	3	4	20	Yuqori
4	Moliya va buxgalteriya bo'limi	3	4	2	3	3	15	O'rtacha
5	Axborot texnologiyalari bo'limi	2	2	1	5	2	12	O'rtacha



Ushbu model orqali ichki audit rejasi tuzishda ob'ektlarning real xavf darajasi asosida ustuvorlik aniqlanadi. Yuqori ball to'plagan ob'ektlar (xavfli zonalar) dastlabki choraklarda ichki audit qilinadi, past ball olganlar esa monitoring darajasida nazorat qilinadi yoki keyingi davrga suriladi. Bu yondashuv resurslarni optimallashtirish va eng muhim xavf nuqtalarini qamrab olishga xizmat qiladi. Ichki audit jarayonining samaradorligini oshirishda aynan shunday ko'p mezonli tizimlarning roli katta bo'lib, ular ichki auditga tizimli va asosli yondashuv olib kiradi.

MUHOKAMA

Riskka asoslangan ichki auditning mohiyati shundaki, u an'anaviy tekshiruvlardan farqli ravishda faqat o'tgan davr natijalarini emas, balki kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf va xatarlarni ham aniqlashga qaratiladi. Shu boisdan, xavf ko'rsatkichlarini belgilash va ularni muntazam monitoring qilish audit jarayonining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab korxonalarda ichki audit faoliyati faqat moliyaviy hisobotlar to'g'riligi va ichki tartib-qoidalarga rioya etilganligini tekshirish bilan cheklanadi. Bunday yondashuv esa risklarni kompleks baholash va ularning oqibatlarini minimallashtirish imkonini bermaydi. Natijada, korxonada faoliyatida kutilmagan moliyaviy yo'qotishlar, boshqaruvdagi xatolar va strategik qarorlarning samarasizligi kuzatiladi.

Xalqaro tajriba asosida olib borilgan tahlillar shuni tasdiqlaydiki, IIA standartlari va COSO ERM modeli asosida ishlaydigan kompaniyalar ichki audit jarayonida xavf ko'rsatkichlarini aniqlashga alohida e'tibor qaratadi. Masalan, risk indikatorlari yordamida korxonaning moliyaviy barqarorligi, operatsion samaradorligi va tashqi bozor o'zgarishlariga moslashuvchanligi muntazam ravishda kuzatib boriladi. Monitoring jarayonida esa aniqlangan xavflar bo'yicha choralar ko'rish, resurslarni qayta taqsimlash va boshqaruv strategiyasini yangilash imkoniyati tug'iladi.

O'zbekiston sharoitida esa riskka asoslangan ichki auditni samarali joriy etish yo'lida bir qator cheklovlar mavjud. Avvalo, ichki auditorlarning risk-menejment bo'yicha bilim va ko'nikmalari yetarli darajada emasligi sezilmoqda. Shuningdek, risk indikatorlarini o'lchash va baholash uchun zarur bo'lgan raqamli texnologiyalar va maxsus dasturiy vositalardan foydalanish imkoniyatlari ham cheklangan. Bu holat auditorlik jarayonida aniq va tezkor axborot olishni qiyinlashtiradi.

Biroq mavjud muammolarga qaramay, riskka asoslangan ichki auditning istiqbollari yuqori. Chunki korxonalar bozor iqtisodiyotida barqaror faoliyat yuritishi uchun risklarni boshqarish madaniyatini rivojlantirish zarur. Xususan, ichki auditorlarning malakasini oshirish, xalqaro tajribani milliy amaliyotga moslashtirish, shuningdek, korxonalar miqyosida risk monitoringini yo'lga qo'yish orqali sezilarli natijalarga erishish mumkin.

Muhokamalar shuni ko'rsatadiki, xavf ko'rsatkichlarini aniqlash va ularni monitoring qilish:

- auditorlarga faoliyatdagi eng muhim risk zonalarini belgilash imkonini beradi;
- korxonada rahbariyati uchun qaror qabul qilish jarayonida qo'shimcha axborot manbai bo'lib xizmat qiladi;
- resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi;



- kutilmagan xavflarni kamaytiradi va moliyaviy intizomni mustahkamlaydi;
- korxonaning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi.

XULOSA

Tadqiqot natijalaridan ko'rinib turibdiki, riskka asoslangan ichki auditni samarali tashkil etishda xavf ko'rsatkichlarini aniqlash va ularni muntazam monitoring qilish jarayoni korxonada boshqaruv tizimining ajralmas qismiga aylanishi lozim. Ichki auditning an'anaviy shaklidan farqli o'laroq, riskka asoslangan yondashuv nafaqat mavjud xatoliklarni aniqlash, balki kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf va xatarlarning oldini olish imkonini beradi. Bu esa korxonaga resurslardan oqilona foydalanish, moliyaviy intizomni mustahkamlash hamda bozor sharoitlariga tezkor moslashish imkonini yaratadi.

Riskka asoslangan ichki auditni samarali tashkil etishda xavf ko'rsatkichlarini aniqlash va monitoring qilish jarayoni strategik ahamiyat kasb etadi. Bu nafaqat audit faoliyatining sifatini oshiradi, balki korxonalarining boshqaruv tizimini mustahkamlash, manfaatdor tomonlarning ishonchini orttirish va global raqobatda barqaror pozitsiyaga ega bo'lishiga ham xizmat qiladi.

References:

1. Power, M. (2007). *The audit society: Rituals of verification*. Oxford University Press.
2. Moeller, R. R. (2022). *Brink's modern internal auditing: A common body of knowledge* (9th ed.). Wiley.
3. Tursunov, X. T. (2020). *Ichki auditni takomillashtirish nazariyasi va amaliyoti*. Toshkent: Iqtisodiyot.
4. Qodirov, D. S. (2019). *Moliyaviy nazorat va ichki audit*. Toshkent: Fan va texnologiya.
5. Sarens, G., & De Beelde, I. (2006). Internal auditors' perception about their role in risk management: A comparison between US and Belgian companies. *Managerial Auditing Journal*, 21(1), 63–80. <https://doi.org/10.1108/02686900610634766>
6. Spikin, I. C. (2013). Risk management and internal control: A risk-oriented approach. *Journal of Business and Management*, 19(2), 45–59.
7. Arena, M., & Azzone, G. (2009). Internal audit effectiveness: Relevant drivers of auditors' performance. *International Journal of Auditing*, 13(1), 43–60. <https://doi.org/10.1111/j.1099-1123.2008.00392.x>
8. O'rinov, B. B. (2021). Korxonalarda riskka asoslangan auditning samaradorligini oshirish yo'llari. *Audit va moliya jurnali*, 4, 56–63.
9. Institute of Internal Auditors. (2023). *International standards for the professional practice of internal auditing*. Altamonte Springs, FL: IIA.
10. Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission (COSO). (2017). *Enterprise risk management: Integrating with strategy and performance*. COSO.